

## **“TOP IZLANUVCHI - 2025” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

qarshi yangi ittifoqlar tuzishga harakat qildi. 1230-yilda Saljuqiyalar bilan bo’lgan jangda zaiflashib qoldi. Mo’g’ullar esa bu vaziyatdan foydalaniib, unga yana hujum qildi. Mo’g’ullar bilan bo’lgan jangda Jaloliddin qattiq yaralanadi. Nihoyat, 1231-yilda Jaloliddin Manguberdi Kurdiston tog’larida mahalliy qabilalar tomonidan o’ldirildi.

Jaloliddin Manguberdi o’z hayotini vatan himoyasi va ozodligi yo’lida fido qilgan mard sarkarda edi. U mo’g’ullar istilosiga qarshi hech qanday yordam olmagan holda kurashdi va so’nggi nafasigacga taslim bo’lmadi.

Bugungi kunda Jaloliddin Manguberdi o’zbek xalqining milliy qahramoni sifatida e’tirof etiladi. Uning nomi shon-sharaf bilan tilga olinadi, xotirasiga haykallar o’rnatilgan va u haqida tarixiy asarlar yozilgan. Jaloliddin Manguberdi- jasorat va mardlik timsoli uning hayoti va jasorati kelajak avlodlar uchun ibrat bo’lib qoldi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qayumov A. “Jaloliddin Manguberdi” - Toshkent, “O’zbekiston”, 1999.
2. Aminov Z. “Xorazmshohlar tarixi” - Toshkent, 2005.
3. Xayrulla Ismatullayev. “Jaloliddin Manguberdi-milliy qahramon” - Toshkent, 2017.

### **BOSHLANG‘ICH SINF O’QUVCHILARIGA CHET TILLARINI O’QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARING AHAMIYATI**

**Sayidova Gulchiroy Nekboyevna**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Turizm fakulteti Maktabgacha va boshlang‘ich  
ta’limda xorijiy til (ingliz tili) yo‘nalishi 23-2 guruh talabasi*

***Ilmiy rahbar: Tulyaganova Nargiza Farxadovna***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati haqida so‘z boradi. Xususan, raqamli qurilmalarning dars jarayonlaridagi ahamiyati va o‘quvchilarning bilim olishidagi o‘rni haqida qisqacha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim, pedagogik texnologiya, raqamli qurilma, dars, metod, ingliz tili, innovatsion yondashuv, ta’lim samaradorligi.

Bugungi rivojlanib borayotgan dunyo hamjamiyatida til o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyatda chet tillarini bilish turli

sohalardagi mutaxassisliklarda ish ko‘laming sifat va miqdor jihatidan o‘sishiga sabab bo‘lmoqda. Chet ellik olimlar, soha mutaxassislari bilan hamkorlik ishlari, hamda tajribalar almashish jarayonlarida chet tillari, xususan, ingliz tilini bilishning ahamiyati katta. Hozirda, mamlakatimizda chet tillari maktabgacha ta’lim, maktab, kollej, litsey va oliy ta’lim muassasalarida o‘rgatilmoqda. Chet tillarini bilgan o‘quvchi yoshlar uchun esa turli imkoniyatlар, shart-sharoitlar yaratilgan. Misol uchun milliy yoki boshqa turdagи til sertifikatiga ega bo‘lgan o‘quvchi yoshlarga ma’lum miqdorda pul mablag‘lari o‘quv muassasalari yoki davlat tomonidan ajratilib berilmoqda. Undan tashqari turli darajadagi til bilimiga ega bo‘lmoqchi bo‘lgan o‘quvchi yoshlar uchun turli o‘quv materiallari va zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlangan o‘quv xonalari tizimli ravishda, bosqichma-bosqich tashkillashtirilib berilmoqda. Shuningdek, malakati chet tili o‘qituvchilari axborot texnologiyalari, hamda zamonaviy o‘qitish metodlaridan foydalangan holda o‘quvchilarning yangi bilimlarini egallashlari uchun yordam berishyapti[1].

O‘rta umumta’lim maktablarida chet tillarini o‘qitish majburiy o‘quv predmetlari qatoridan o‘rin olgan va bolalarning bilim olish darajalariga binoan bosqichma bosqich o‘rgatiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chet tillarini o‘qitishda yosh va shaxs xususiyatlari, xotira, diqqat, idroki hisobga olingan holda darslar tashkillashtiriladi. Yosh bolalarning ko‘rish va eshitish xotiralari yaxshi rivojlanganligini hisobga oladigan bo‘lsak, ularga ko‘rgazmali qurollar, video darsliklar bilan yangi narsalarni tushuntirish va o‘rgatish ancha muncha osonligini ko‘ramiz. Bunday hollarda esa bizga zamonaviy texnologiyalarning ko‘magi katta. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chet tillarini o‘qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib, o‘quv-metodik adabiyotlar tizimini yaratish va o‘quv jarayonlarida qo‘llash zamon talabiga aylanib qolgan. Butun dunyoda elektron axborot ta’lim resurslarini yaratish va undan foydalanish ommalashib ketdi. Sababi bunday ma’lumotlardan foydalanish qog‘ozli ma’lumotlarga qaraganda bir qancha qulayliklar va afzallikkarga ega:

1. Butun ma’lumotlar ichidan kerakli qismini tez topib olish;
2. Lozim bo‘lganda uni tez tahrirlash va yangilash;
3. Internet orqali ma’lumotlarni boshqalar bilan almashish;
4. Elektron kutubxona yaratish;
5. Soha mutaxassislari bilan masofadan turib bemalol fikr almasha olish.

Yuqoridagi qulayliklarni hisobga olgan holda[3], 2021 – yil 6- may kuni o‘tkazilgan videoselektrda mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqtি keldi. Biz raqobatdosh

davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, kollej, litsey va oliv o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”, degan ta’kidlari sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Shundan so‘ng chet tili darslarining o‘tilishi jarayonida kerak bo‘ladigan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, innovatsion va interfaol usullardan, shuningdek, axborot kommunikativ vositalaridan foydalanish urfga aylandi. Ushbu talablarga mos ravishda o‘quv xonalari tashkillashtirildi.

Zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘quvchilari texnologiyalar bilan birga ulg‘ayishyapti. Ular erta bolalik davridan boshlab eng so‘nggi qurilmalarning qanday ishlashini o‘rganib kelishyapti. Natijada, ular uchun raqamli qurilmalar bilan ishlash juda qulay. Shuning uchun dars o‘tish jarayonida o‘qituvchilar bolalarning qiziqishlarini orttirish uchun texnologiyalardan foydalanishlari maqsadga muofiq. Turli texnologiyalarni ta’lim sohasiga olib kirilganligiga hali ko‘p vaqt bo‘lganligiga qaramay, ularning samaradorligi ko‘zga yaqqol tashlanib turibdi. Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarni raqamli texnologiyalar bilan ta’minlash ishlari ta’lim sohasida olib borilayotgan tajribalarning asosiy qismi hisoblanadi[2]. “Explorance” jurnalining ma’lumotlariga ko‘ra, innovatsion texnologiyalar zamonaviy sinflarda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bunda zamonaviy texnologiyalar o‘quvchi yoshlarga raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini va eng ilg‘or texnologiyalar bilan ishlash malakasini oshirishga imkon beradi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf muhitida texnologiyalardan foydalanish nihoyatda foydali bo‘lishi mumkin deb ta’kidlangan. Raqamli vositalarni boshlang‘ich sinflarga tadbiq etishning ba’zi afzalliklari haqida ham eslatib o‘tilgan.

1. O‘quvchilarga texnologiya va raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam berish
2. O‘quvchilarga yangi mavzular va tushunchalar bilan shug‘ullanishning qiziqarli usullarini taqdim etish
3. O‘quvchilar taraqqiyotini yanada shaffofroq tarzda kuzatish
4. Ota – onalar vas inf hamjamiyatini kuchaytirish uchun sinfda sodir bo‘ladigan tadbirlar, voqeа – hodisalarни hujjatlashtirish

Bugungi kunda texnologik vositalardan foydalanish chet tilini o‘rganishning o‘qish, tinglab tushunish va gapirish bosqichlarida qo‘l keladi. Dars mavzusiga oid multimedia, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo‘lishiga ko‘mak beradi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga biron bir mavzu video darslik orqali tushuntirilsa, o‘sha mavzuni kitob yoki qog‘ozli ma’lumotlar bilan tushuntirilganligidan ancha

tez va oson o‘rganib, yodlab oladi. Bolaning ko‘rib, eshitib eslab qolish qobiliyatining ustunligini ushbu misolda ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Internet hayotimizning har bir jabhasini egallab olgan desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunonchi, chet tilini o‘rgatish va o‘rganish jarayonlarida internetdan unumli foydalanish eng samarali usul bo‘lishi mumkin. Internetda til o‘rganish bo‘yicha juda katta ma’lumotlar bazasi mavjud bo‘lib, ular har bir bosqich va hattoki yosh xususiyatlariga mos ravishda ham tuzilgan. Faqatgina to‘g‘ri va ishonchli ma’lumot topib ularni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga taqdim eta olish o‘qituvchining pedagogik mahorati va malakasiga bog‘liq. Turli usullarni birlashtirib o‘qituvchi muayyan ta’lim dasturini tuzish imkoniyatiga ega. Bunda o‘qitishning bir nechta metodlaridan, xususan raqamli texnologiyalardan foydalanishi samarali natija beradi. [4] O‘qituvchilar ta’lim sohasi uchun yaratilgan quyidagi ilovalardan foydalangan holda, dars mobaynida interaktiv va qiziqarli usullarni taqdim etishlari mumkin:

- Quiz va Kahoot. Viktorina va baholashlar uchun;
- Google Classroom. Topshiriqlar va aloqalarni boshqarish uchun;
- ClassDojo. O‘quvchilarning xulq-atvorini tekshirish va motivatsiya berish uchun.

Ushbu dasturlar o‘qituvchiga o‘quvchilarni nazorat qilish, baholash va barcha o‘quvchilarni dars jarayoniga jalb qilishga ko‘maklashadi. Bunday ta’limiy dasturlar o‘quvchilarning o‘z ustlarida ishlashiga turki bo‘ladi va muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

Bugungi kunda innovatsion ta’lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng foydalanilsa, darsning samaradorligi bir necha barobar ortadi va o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarining ortishiga ham yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chet tillarini o‘qitishda turli rolli, harakatli o‘yinlardan foydalanib dars o‘tish ham til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarining ortishida sabab bo‘ladi. Chet tilini o‘rgatishda innovatsion texnologiyalar bilan bir qatorda grafik organayzerlardan foydalanib, mavzuga oid yangi so‘zlarni, grammatik qoidalarni tushuntirib berish maqsadga muofiq. Grafik organayzerlar orqali tushuntirib berilsa, yodda saqlab qolish ham oson bo‘ladi. Ta’limda pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati o‘quvchilarni qiziqtirib o‘qitish va bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishlariga yordam berishdir. Eng so‘nggi zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlangan sinf xonalarida ta’lim olgan o‘quvchilarning jahon talablariga mos kadrlar bo‘lib yetishish imkoniyatlari ortadi. Chunki, innovatsion texnologiyalar chet tillarini o‘qitish jarayonini sezilarli darajada boyitadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim kerakki, innovatsion texnologiyalarning ta’lim sohasidagi ahamiyati juda katta. Raqamlar qurilmalar yordamida o‘qitish va o‘rganish qog‘ozli ma’lumotlar bilan ishslashdan anchagina samaraliroq. Bunda tayyor ma’limotlar bazasidan foydalangan holda dars o‘tish o‘qituvchiga ancha yengilliklar va qulayliklar beradi. Shuningdek, o‘qituvchilar boshqa qo‘sishimcha pedagogik yondashuvlar va usullardan foydalanishga o‘z ustlarida ko‘proq shug‘ullanishlari uchun ham yetarlicha vaqtga ega bo‘ladilar. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning jahon standartlariga mos kadrlar bo‘lib yetishishiga turki bo‘ladi va ularning kelajakdagি kasbiy faoliyatlariga ham ta’sir qiladi

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. Xodjayeva, M. Qahhorova “Chet tilini o‘qitish metodikasi”. Fan va texnika nashriyoti. Toshkent. 2013
2. “Innovations in Education Integrating Technology in Elementary Education program”//www. ucumberlands. edu
3. “Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodologiyasining ahamiyati”. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent. 2021.
4. “Integrating Technology in Elementary Education”//www.ucumberlands.edu

### O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGINI ZAMONAVIY SUV TEJAYDIGAN TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

**Baymirzayev Baxodirjon Ulug‘bek o‘g‘li**

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va Tadbirkorlik Oliy maktabi magistratura tinglovchisi 2-kurs MBA-22-B01 guruh*

**Annotatsiya:** Maqolada bir qancha global muammolar asnosida respublikamiz hududidagi daryolar sathining kamayishi, sug ‘oriladigan yerdarda suv tanqisligining kuzatilishi sababli qishloq xo‘jaligini zamonaviy suv tejaydigian texnologiyalarni joriy etish uchun tomchilatib, yomg‘irlatib va diskretli sug‘orishlarni aniq keltirilgan prognozik faktlar asosida o ‘rganilgan. Respublikamiz hududida o ‘rganishlar natijasida 430000 ga yerdan 210739 ga yer hududini tomchilatib sug‘orish zamonaviy suv tejaydigian texnologiyalari